UO‘K 94 (575.1)

IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI YILLARDA O‘ZBEKISTON KOLXOZCHILARINING TOMORQA XO‘JALIKLARI TAQDIRI (1946–1953-yillar)

M.G‘. Abdullayev

Maqolada Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda sovet hukumatining agrar siyosati va uning xususiyati, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining umumiy holati, kolxozchilarning moddiy ahvoli masalalari yoritilgan. Markaziy va mahalliy hokimiyat organlarining qishloq aholisi shaxsiy yordamchi xo‘jaligini cheklash bo‘yicha amalga oshirgan chora-tadbirlari, tomorqa xo‘jaligidan topilgan daromadga belgilangan soliqlar turi hamda miqdori bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *Ikkinchi jahon urushi, qishloq xo‘jaligi, agrar siyosat, kolxoz, kolxozchi, shaxsiy tomorqa xo‘jaligi, natural soliq, mehnat majburiyati, oila daromadi, oziq-ovqat siyosati, sovet hukumati.*

В статье освещается аграрная политика советского правительства в послевоенные годы и ее особенности, общее состояние сельского хозяйства Узбекистана, а также материальное положение колхозников. Представлены аналитические данные о мерах, предпринятых центральными и местными органами власти по ограничению личных подсобных хозяйств сельского населения, а также о видах и размерах налогов, установленных на доходы, полученные от приусадебных хозяйств.

Ключевые слова: *Вторая мировая война, сельское хозяйство, аграрная политика, колхоз, колхозник, личное приусадебное хозяйство, натуральный налог, трудовая повинность, доход семьи, продовольственная политика, советское правительство.*

Kirish

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning samarali yo‘llari va shakllarini joriy etish borasida harakatlar qilinmoqdaki, bu chora-tadbirlar orqali qishloq xo‘jaligini qisqa muddatlarda jadal rivojlanish yo‘liga olib chiqish ko‘zda tutilgan. Bu borada respublika qishloq aholisining shaxsiy tomorqa xo‘jaliklarida etishtirayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan o‘zini o‘zi hamda ma’lum darajada bozorni ta’minlash omili katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Zero, shaxsiy tomorqa xo‘jaliklarida etishtirilayotgan mahsulotlarning bozorga ommaviy ravishda kirib kelishi mamlakat iqtisodiyotining agrar sektorida raqobat munosabatlarining rivojlanishiga turtki beradi, peshtaxtalarni sifatli, ekologik toza mahsulotlar bilan to‘ldirish imkonini beradi. Bu o‘rinda sovet hokimiyati yillarida, urushdan keyingi og‘ir davrda (1946–1953-yillar) kolxozchilarning shaxsiy tomorqa xo‘jaliklarini rivojlantirishning tajribasi, uning ham ijobiy, ham salbiy oqibatlarini tahlil etish muhim amaliy ahamiyatga ega.

Material va metodlar

Ushbu maqolani tayyorlashda, asosan, birlamchi arxiv manbalariga tayanildi. Xususan, Farg‘ona viloyat davlat arxivi fondlarida saqlanayotgan Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarga oid hujjatlar bu davrdagi sovet hukumatining soliq siyosati mohiyatini ochib berishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Shuningdek, XX asrning 40–50-yillarida sovet hukumatining qishloqdagi soliq qonunchiligi, kolxozchi va yakka dehqon xo‘jaliklari uchun belgilangan tomorqa yerlari va uning me’yori kabi jihatlarni yoritishda Rossiya Federatsiyasida keyingi yillarda nashr etilgan kitoblar hamda arxiv hujjatlari to‘plamlari ham muayyan ahamiyatga ega bo‘ldi.

Maqolaning metodologik asosini tarixiy bilimlarning dialektika va tarixiylik usullari, ilmiylik va xolislik tamoyillari tashkil etadi. Dialektika va tarixiylik metodi o‘zbek qishloqlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar dinamikasini yoritishda, ijtimoiy hayotning boshqa hodisalari bilan o‘zaro bog‘liqlikda va aloqadorlikda, aniq tarixiy sharoitlarni hisobga olgan holda va xronologik ketma-ketlikda ko‘rib chiqish imkonini berdi.

Natijalar va ularning tahlili

Ma’lumki, sovet hukumati urushdan keyingi yillarda iqtisodiyotning agrar sektorida ishlab chiqarish munosabatlarini tubdan o‘zgartirishga jadal kirishmadi, bu sohada urush yillarida joriy etilgan qattiq tartib-qoidalar saqlanib qoldi. Sovet davlati tinch qurilishga o‘tish jarayonida ham kolxozchilar mehnatini moddiy rag‘batlantirish tizimini joriy etishdan voz kechdi, qishloq aholisiga nisbatan ma’muriy majburlash tizimini kuchaytirishga, 1929–1932-yillardagi kollektivlashtirishdan keyingi davrda bo‘lgani kabi, kolxozchilarni dalalarda amalda tekinga ishlashga majbur qilish bo‘yicha chora-tadbirlari davom ettirildi [1. B. 484].

Olib borilgan siyosat natijasida qishloq xo‘jaligi sohasidagi ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari sekin sur’atlarda o‘sib bordi. G‘alla ekinlari bo‘yicha yuqori hosildorlikka erishilmadi. Mamlakat bo‘yicha hatto 1950-yilda ham 1940-yildagi g‘alla hosildorligi darajasiga erishilmagan edi [2. B. 238–241].

Urush tufayli holdan toygan qishloq aholisi uchun 1946-yildagi qurg‘oqchilik katta kulfat bo‘ldi. Shu yili SSSR bo‘yicha g‘alla ekinlari yalpi hosili atigi 39,6 million tonnani tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich 1945-yilgi yalpi hosildan 4,1 million tonna kam bo‘lib, urushdan oldingi 1940-yilga nisbatan (95,6 million tonna) esa qariyb 2,5 barobar oz edi [3. B. 123–124]. Mamlakatning g‘alla etishtiruvchi mintaqalarida qishloqlarda ochlik vujudga keldi, chunki kolxozlar etishtirilgan mahsulotning deyarli barchasini davlatga topshirishga majbur edilar. Bu paytda chorvachilik ham jiddiy inqirozni boshdan kechirmoqda edi. Ma’lumki, chorva hayvonlari soni bo‘yicha 1913-yilgi ko‘rsatkichlarga urushdan oldingi yillarda ham erishilmagan, urushdan keyingi davrda esa chorvachilikning umumiy ko‘rsatkichlari urushdan oldingi davrdagidan ham pastroq edi [4. B. 272].

Urush jarohatlari asta-sekin bitib bordi. Mamlakat qishloq xo‘jaligi ayrim muhim ko‘rsatkichlar bo‘yicha 1950-yilga kelib 1940-yil darajasiga yaqinlashdi. Xususan, yalpi ishlab chiqarish 1940-yilgi darajaning 99 foizini, barcha turdagi xo‘jaliklarning qishloq xo‘jalik mahsulotlari esa 97 foizini tashkil etdi. Paxta xomashyosi tayyorlash urushdan oldingi darajadan 58 foizga ko‘paygan bo‘lsa, qand lavlagi va kartoshka etishtirish 16 foizga oshdi [5. B. 204].

Biroq iqtisodiyotning qishloq xo‘jaligi sohasidagi vaziyat juda ziddiyatli ekanligicha qolaverdi. Buni ikkita muhim holat ko‘rsatib turardi. Birinchisi qishloq xo‘jaligining rivojlanish tendensiyalari bilan bog‘liq bo‘lib, 1950-yillarning boshidayoq uning rivojlanish sur’atlari sezilarli darajada pasaygan edi. Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining o‘rtacha yillik o‘sish sur’atlari 1940-yillar oxirida taxminan 8 foizni tashkil etgan bo‘lsa, keyinchalik bu ko‘rsatkich 1–2 foizgacha tushib ketdi [6. B. 505].

Ikkinchi holat dehqonlarning og‘ir ijtimoiy ahvoli bilan bog‘liq edi. Stalinning agrar siyosati doirasida qishloq xo‘jaligini inqirozdan olib chiqish, dehqon xo‘jaliklari ahvolini engillashtirish mumkin emas edi. Yuqorida ta’kidlanganidek, qishloqqa urushdan oldin ham, Stalin vafotiga qadar ham davlat uchun zarur bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini arzon narxlarda tortib olish manbai sifatida qaralgan. Qishloq xo‘jaligi imkoniyatlari haligacha sanoat manfaatlariga bo‘ysundirilgan edi. Xarid narxlari juda past bo‘lib, ko‘p hollarda etishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining tannarxini qoplashga ham yetmas edi.

Kolxozlar qo‘lida kolxozchilarning mehnatiga haq to‘lash uchun juda oz mablag‘ qolardi. Bajarilgan mehnat shartli birlik – mehnat kuni bilan o‘lchanardi. Mehnatga haq to‘lash kalendar yili oxirida ikki ko‘rinishda: qisman natura shaklida, qisman pul bilan amalga oshirilardi. Ko‘pgina kolxozlarda to‘lanayotgan haq urushdan oldingiga qaraganda ancha kam edi. Aksariyat kolxozlarda mehnat kuniga bir necha tiyin va qo‘shimcha ravishda bir kilogramm don berilgan. Ba’zi xo‘jaliklarda kolxozchilar hatto bu miqdorni ham ololmasdi [7. B. 256–257]. Shuning uchun ular o‘zlarining kichik tomorqa yyerlarini parvarish qilish orqali o‘zlarini ta’minlashga, shuningdek, bozorda sotish mumkin bo‘lgan chorva mollari va parrandalarni iloji boricha ko‘proq saqlashga harakat qilishgan. Bu yillarda har qanday dehqon oilasining asosiy tashvishi o‘z tomorqasini saqlab qolish bo‘lib qoldi, chunki tomorqa hayot kechirish uchun zarur oziq-ovqatning asosiy qismini ta’minlash manbasi bo‘lib qolgan edi. Shaxsiy tomorqa yerlar qishloq aholisini go‘sht, sut, sabzavot va mevalar, tuxum, yog‘, teri bilan ta’minlagan. Bundan tashqari, aholi tomorqada yetishtirilgan mahsulotning bir qismini bozorda sotish orqali naqd pulga ega bo‘lgan, bu pulga ular kiyim-kechak, uy-ro‘zg‘or buyumlarini sotib olishlari mumkin edi. Chunki urushdan keyingi yillarda ham O‘zbekistondagi ko‘pgina kolxozlarda ish haqi pul bilan emas, balki natural shaklda berilar edi. Biroq dehqonlarning tomorqa xo‘jaliklarida ishlab chiqarilgan hamma mahsulotlar ham dehqonlarning o‘zlariga qolmagan. Dehqon xonadoniga ikki ko‘rinishda – natural va pul soliqlari solingan. Bundan tashqari, ikkala soliq ham o‘sish tendensiyasiga ega edi. Agar 1940-yilda dehqon xonadonlaridan olinadigan soliqning o‘rtacha miqdori 112 rublni tashkil etgan bo‘lsa, 1949-yilda uning miqdori 419 rublni, 1950-yilda 431, 1951-yilda 471, 1952-yilda esa 528 rublni tashkil etdi [8. B. 180].

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 1952-yilda kolxozlardagi “mehnat kunlari” bo‘yicha ishlash kolxozchi umumiy daromadining taxminan 20 foizini bergan. 1950-yillarning o‘rtalariga kelib, bitta kolxozchining yillik mehnat majburiyati 150–200 kunni tashkil etdi [9. B. 52]. 1950-yillarda o‘tkazilgan hisob-kitoblar shuni ko‘rsatadiki, Farg‘ona vodiysi oblastlarida kolxozchilar oilasining o‘rtacha yillik daromadi 4267 rublni tashkil qilgan. Olingan daromad miqdori shu darajada bo‘lganki, oilaning kolxozchi a’zolari kolxozda mehnat qilib, o‘zlari tomonidan yaratilgan moddiy daromadning faqat 13 foizini ish haqi sifatida olgan. Dehqon xo‘jaliklari eng yuqori daromadni o‘zlarining shaxsiy tomorqalaridan olganlar. Albatta, dehqonlar o‘z tomorqasida sidqidildan mehnat qilgan, bunga yarasha olingan daromad ham ancha ko‘p bo‘lgan. 1946–1947-yillarda bitta kolxozchi oilasi o‘z tomorqasidan olgan daromad o‘rtacha 2460 rublni tashkil qilgan [3. B. 123–124].

Shuning uchun kolxozchilar tirikchilik uchun kolxozlarda faqat belgilangan normani bajarishga, qolgan vaqtlarda esa shaxsiy tomorqalarida ishlashga harakat qilganlar. Bu tendentsiya shunga olib keldiki, ayrim kolxozchilar qishloq xo‘jalik arteli Nizomida belgilangan eng kam mehnat kunini ham bajarmaganlar. 1950-yilda O‘zbekistonning barcha oblastlari bo‘yicha kolxozlarda bajarilmagan mehnat kunlari 15 foizdan oshib ketgan [10. B. 34]. Shu boisdan ham bajarilmagan mehnat kunlari uchun kolxozchilarga qat’iy jazo choralari qo‘llana boshlagan. Ya’ni, ular ma’muriy, hatto jinoiy javobgarlikka tortila boshlagan, yashash joylarini tark etishi taqiqlab qo‘yilgan [11. B. 413].

1951-yilda butun mamlakat bo‘yicha dehqonlar o‘zlarining tomorqalarida qancha mahsulot ishlab chiqarganliklari hisoblab chiqilgan, bu SSSR bo‘yicha barcha qishloq xo‘jaligi maydonlarida yetishtirilgan yalpi mahsulotning 7,2 foizini tashkil qilgan [12. B. 42–43]. O‘zbekiston SSR bo‘yicha statistik ma’lumotlar ham bundan kam bo‘lmagan. Respublikada kolxozchilarning tomorqa yerlari maydoni barcha qishloq xo‘jalik yerlari maydonining bor-yo‘g‘i 2 foizini tashkil qilsa-da, tomorqa yerlaridagi hosildorlik kolxoz va sovxozlarga qaraganda ancha yuqori bo‘lgan [2. B. 27].

Hokimiyat organlari mavjud ahvoldan jiddiy tashvishga tushdi, chunki ular bundan buyon ham dehqonlar mehnatidan “sotsialistik davlat manfaatlari” yo‘lida foydalanish niyatida edi. Shu boisdan butun mamlakat bo‘yicha dehqonlarning shaxsiy xo‘jaliklari faoliyatiga qarshi jiddiy choralar ko‘rila boshlandi. Shaxsiy xo‘jalikdagi har bir sigir, ot, cho‘chqa, qo‘y, hatto mayda parrandalarga ham katta soliqlar solina boshladi. Nafaqat mevali daraxtlar, balki malina, smorodina kabi butalar ham ro‘yxatga olinib, soliqqa tortildi. Bunda soliqlar ham pul, ham natura shaklida undirilardi. Bu harakatlarning asosiy maqsadi kolxozchilarni, hech qanday rag‘batlantirish bo‘lmagan sharoitda, kolxoz va sovxozlarda samarali ishlashga majbur qilish edi. Mahalliy hokimiyatning yana bir maqsadi qishloq xo‘jaligining eng daromadli qismi bo‘lgan xususiy ishlab chiqarishni cheklashdan iborat edi.

Sovet hukumati kolxozchilar shaxsiy tomorqa xo‘jaliklarining daromadlilik me’yorlarini bir necha bor qayta ko‘rib chiqdi. Bu qayta baholashlar 1946-, 1948- va 1952-yillarda ketma-ket amalga oshirildi. 1947-yilda hukumat mayda dehqon xo‘jaliklariga yanada jiddiyroq zarba berdi. Bozorlarda mahsulot sotuvidan olingan daromaddan yangi soliqlar yig‘ish yo‘lga qo‘yildi. Buning ustiga, bozorda mahsulotni sotish uchun muayyan sotuvchining davlat oldidagi majburiyatlarini bajarganligi haqidagi ma’lumotnoma talab qilinar edi. Tekshirish paytida bunday hujjat topilmasa, dehqonlar tomonidan olib kelingan barcha mahsulotlar darhol musodara qilinar, ular jarimaga tortilar, ba’zi hollarda esa “chayqovchilik” aybi bilan jinoiy javobgarlikka ham tortilishi mumkin edi.

Barcha darajadagi rahbarlarning yakka tartibdagi tomorqa xo‘jaliklariga qarshi qaratilgan xatti-harakatlari dehqonlarning iqtisodiy ahvoliga jiddiy zarar yetkazdi. 1948-yilda shaxsiy tomorqa xo‘jaliklaridan olinadigan qishloq xo‘jalik solig‘i stavkalari 8 foizdan 17 foizgacha oshirildi. Shu bilan birga, boshqa to‘lovlar – sug‘urta to‘lovlari, o‘z-o‘zini soliqqa tortish, davlat tomonidan qishloq aholisiga muntazam ravishda tarqatilgan turli xil qarzlar uchun to‘lovlar saqlanib qoldi yoki o‘sib bordi [13. B. 208].

Voqelik shuni ko‘rsatadiki, 1945-yilda qishloq xo‘jalik solig‘ining o‘rtacha miqdori har bir jonga (yoshidan qat’i nazar) 59,5 rublni (jon boshiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha daromadning 3,7 foizi) tashkil etgan bo‘lsa, 1950-yilga kelib bu ko‘rsatkich 93,6 rublga (8,1 foizga) ko‘tarildi. Shu bilan birga, sug‘urta to‘lovlari, obligatsiyalar uchun to‘lovlar va o‘z-o‘zini soliqqa tortish 12,4 rubldan 25,4 rublga yoki ikki baravarga oshirildi [14. B. 146].

Shaxsiy tomorqa xo‘jaliklarida yetishtirilgan mahsulotlar davlatga majburiy topshirish shaklida soliqqa tortilardi. G‘alla, go‘sht, sut, kartoshka, tuxum, jun va boshqa mahsulotlar topshirilishi shart edi. Har bir xonadondan o‘rtacha 40 kg go‘sht, 250 kg kartoshka, 50 dona tuxum, 3 kg jun, 100 kg sut yoki 4 kg sariyog‘ yig‘ib olingan. 1940-yilda bitta xo‘jalik uchun tomorqadan topshiriladigan go‘sht majburiyati 32–45 kilogrammni tashkil qilgan bo‘lsa, urushdan keyingi yillarda uning hajmi 40–60 kilogrammga oshdi [15. B.

179]. Ba’zi xo‘jaliklar qo‘y juni va qoramol terisi kabi mahsulotlarni ishlab chiqarmasa-da, ularni topshirishi shart bo‘lgan. Bunday hollarda ular bunday mahsulotlarni qo‘shnilaridan sotib olishiga to‘g‘ri kelardi. Faqatgina 1953-yildan boshlab davlatga majburiy mahsulot topshirishning yillik me’yorlari pasaytirildi, 1958-yildan e’tiboran esa oziq-ovqat majburiyati butunlay bekor qilindi [16. B. 633].

SSSR Ministrlar Soveti va VKP(b) MKning 1946-yil 19-sentyabrdagi “Kolxozlarda qishloq xo‘jalik arteli Nizomi buzilishlarini tugatish choralari to‘g‘risida”gi qarori [17. B. 336–341] qishloq joylarda kolxozchi, ishchi-xizmatchilar yordamchi xo‘jaligida foydalanilayotgan tomorqa maydonlari hajmini qisqartirishga qaratilgan edi. Xususan, qarorda mamlakatning ko‘pgina joylarida qishloqlarda yashayotgan kolxozchilar va ishchi-xodimlar tomonidan kolxozlarga tegishli ekin maydonlari o‘zboshimchalik bilan egallab olinayotgani, bunday egallab olingan yerlar miqdori yil sayin ko‘payib borayotgani tanqid qilingan. Qarorda 1946-yil 15-noyabrgacha bo‘lgan muddatda har bir kolxoz bo‘yicha aniq tekshiruv o‘tkazilishi va yer maydonlari kolxozlarning xo‘jalik kitoblaridagi yozuvlar bilan taqqoslanishi, qishloq aholisiga tegishli tomorqa uchastkalarining o‘lchamlari aniqlanib, alohida kolxozchilar tomonidan, turli tashkilot va muassasalar tomonidan noqonuniy egallab olingan yerlar tortib olinib, kolxozlarga qaytarilishi belgilandi. Shuningdek, kolxoz mol-mulkini, jamoat yerlarini, pul mablag‘larini o‘g‘irlash va noqonuniy tasarruf etishda aybdor bo‘lgan sovet, partiya va yer organlari xodimlari hamda kolxoz raislari lavozimlaridan olinib, qonun buzuvchilar va kolxoz tuzumining dushmanlari sifatida sudga topshirilishi ko‘rsatildi [17. B. 341].

Bu qaror e’lon qilinganidan keyin O‘zbekiston SSRda ham qishloq aholisi tasarrufidagi tomorqa yerlar hajmini keskin qisqartirish boshlangan. O‘zbekiston uchun kolxozchilar tomonidan foydalanish mumkin bo‘lgan o‘rtacha tomorqa yer maydoni 0,15 gektar miqdorida belgilangan bo‘lib, bu hajmdan ortiqcha tomorqa yerlar tortib olinib, kolxoz va sovxozlar balansiga o‘tkazilgan. Ayni paytda kolxozchilarning shaxsiy yordamchi xo‘jaliklaridan olinadigan daromadlariga solinadigan soliq yuki oshirildi. Ya’ni, shu yildan boshlab, kolxozchilar hovlisidagi mevali daraxtlarga ham soliq solina boshlagan.

Olma, nok, o‘rik, olxo‘ri va rezavor mevalar bo‘yicha alohida topshirilishi shart bo‘lgan miqdor belgilangan, chunki har bir oiladagi har bir daraxt, har bir buta ro‘yxatga olingan. Hatto hosilning kamligi kabi obyektiv sabablar ham hokimiyat tomonidan e’tiborga olinmagan. Shu bois dehqonlar tomorqasidagi daraxtlarni kesishga, butalarni ildizi bilan sug‘urib tashlashga majbur bo‘lishgan [18. B. 220].

1946-yilda Farg‘ona oblasti bo‘yicha yordamchi daromad manbalari (shaxsiy tomorqa, bog‘, uzumzor, hunarmandchilik ishlab chiqarishi)ga ega bo‘lgan 237 ta xo‘jalik ro‘yxatga olingan bo‘lib, ularga tegishli ekin maydonlari 3731 gektarni tashkil etgan. 1947-yilda bunday xo‘jaliklar 187 taga qisqargan va ular tomonidan foydalanilayotgan yer maydonlari ham tegishlicha 3089 gektarga kamaygan [19. B. 166].

Dehqon oilalarining tirikchiligi 1946-yildan boshlab 1950-yillarning o‘rtalarigacha bo‘lgan davrda ham juda nochor ahvolda edi. Dehqon oilalari asosan don mahsulotlari bilan tirikchilik qilishardi. Urushdan keyingi yillardagi tirikchilik o‘tkazish holati urushdan oldingisidan ancha yomon bo‘lgani to‘g‘risida juda ko‘plab guvohliklar bor.

Hokimiyat kolxoz va sovxozlardagi o‘zaro munosabatlarning butun tizimini isloh qilish o‘rniga, qishloq aholisining moddiy manfaatdorligiga e’tibor qaratib, turli taqiq va cheklovlar o‘rnatish yo‘lidan bordi. Hukumat qarorlarida “kolxozchilarning kolxoz yerlarida yomon ishlayotgani”, “ular vaqtning ko‘p qismini kolxoz dalalarida emas, o‘zlarining shaxsiy tomorqa yerlarida o‘tkazayotgani” yana ta’kidlandi [20. B. 201–203]. 1946-yil sentyabr oyida SSSR Yer ishlari xalq komissari A.A.Andreev boshchiligidagi kolxozlar ishlari bo‘yicha tuzilgan maxsus hukumat komissiyasining maqsadlaridan biri “kolxozlardagi qonunbuzarliklarni tugatish va g‘alla tayyorlashga to‘sqinlik qiladigan, kolxoz mulkini o‘g‘irlaydigan va hosilni talon-taroj qiladigan dushman unsurlarni haydab chiqarish” edi.

A.A.Andreev komissiyasi, uning joylardagi filiallari 1946–1948-yillarda kolxoz va sovxozlarda tartib o‘rnatish bo‘yicha qizg‘in faoliyat olib bordi. Bunday komissiyalar barcha ittifoqdosh respublikalarda, oblastlarda, avtonom tuzilmalarda va hatto rayonlarda ham tuzildi. Ularning tarkibiga huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari, VKP(b) viloyat va rayon komitetlari a’zolari, boshqa ma’muriy xodimlar kiritildi. Butun faoliyatni Kolxoz ishlari bo‘yicha Sovet muvofiqlashtirib turardi. Bu komissiya a’zolari bevosita kolxoz va sovxozlarga borib tekshiruv o‘tkazar edi. Komissiyalar faoliyatining natijalari shunday bo‘ldiki, birinchidan, “urush yillarida kolxozchilar tomonidan noqonuniy ravishda egallab olingan” yerlar dehqonlardan tortib olinib, kolxoz va sovxozlarga qaytarildi.

1947-yilda Farg‘ona oblasti qishloqlarida yashovchi ishchi-xizmatchilarning ham tomorqa yerlari qayta xatlovdan o‘tkazildi. Tekshiruv davomida ularga tegishli tomorqa yerlari 668,4 gektarni tashkil etishi aniqlangan. O‘lchangan tomorqa yerlarining 81 gektari bog‘lar, 19 gektari uzumzorlar, 60 gektari turli bi-

nolar va qurilmalar o‘rni bo‘lgan. Umuman, tekshiruvda xatlangan 668,4 gektar tomorqa yerlarning 214,8 gektari belgilangan normadan ortiqcha deb hisoblangan [19. B. 167].

Bu aslida shunday bo‘lgan ediki, urush davrida erkaklarning katta qismi frontga chaqirilishi munosabati bilan ko‘pgina kolxoz yerlari qarovsiz qolib, kolxoz va sovxoz rahbarlarining ruxsati bilan dehqon oilalari tomonidan foydalanilayotgan edi. Biroq qishloq aholisining tomorqa uchastkalarini navbatdagi qisqartirish hisobiga ulardan ko‘plab yerlar tortib olindi. Umuman, mazkur komissiyalar faoliyati davomida butun mamlakat bo‘yicha 10 million gektardan ortiq tomorqa yerlari dehqonlardan tortib olinib, kolxozlarga berildi [8. B. 230–231].

Boshqa bir tomondan, komissiyalar tarkibiga kirgan huquq-tartibot idoralari xodimlari “umumxalq mulkini talon-toroj qilayotgan” kolxozchilarga qarshi minglab jinoiy ishlarni ochdilar. SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1932-yil 7-avgustdagi farmoni (“uch boshoq qonuni”) yana amal qila boshladi. Buning ustiga 1946-yil oktyabr oyida SSSR Ministrlar Sovetining “Davlat g‘allasini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi mashhur qarori chiqdi. Bu qaror Adliya ministrligidan 1932-yildagi “uch boshoq to‘g‘risida”gi qonunni qattiqroq qo‘llashni talab qilgan edi. Ma’lumotlarga ko‘ra, 1946-yil noyabr – dekabr oylarida bu qonunlar asosida SSSR bo‘yicha 53 mingdan ortiq kishi hibsga olingan va sudlangan, ular kolxozlardagi g‘alla va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini talontaroj qilganligi uchun uzoq muddatli qamoq va lagyerlarga hukm qilingan [8. B. 235]. 1947-yil iyun oyida “davlatga yoki kolxoz mulkiga tajovuz qilish” uchun jinoiy javobgarlikni kuchaytirish to‘g‘risida ikkita farmon qabul qilinib, buning uchun 5 yildan 25 yilgacha (o‘g‘irlik uchun) yoki 2–3 yilga (tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan o‘g‘rilik haqida xabar bermaganlik uchun) ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilandi [21]. 1947-yil oxiriga kelib, bu qonunlar asosida jazolash SSSR bo‘yicha 380 ming kishini qamrab oldi, ulardan 21 ming nafarini bolalar tashkil etdi.

Ayni vaqtda davlatga don va boshqa turdagi oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berish rejasini bajarmagan kolxoz va sovxoz rahbarlari qattiq qatag‘on qilindi. Ushbu chora-tadbirlar kutilgan samarani berdi. 1946–1947-yillarda mamlakat bo‘yicha g‘alla tayyorlash rejasining bajarilishi 36 foizdan 77 foizga ko‘tarildi. Biroq bu tadbirlar 1946–1947-yillardagi ocharchilikning sabablaridan biri bo‘ldi.

Kolxoz va sovxozlardagi majburiy mehnat kunini bajarmagan kolxozchilar va sovxoz ishchilariga nisbatan qattiq choralar ko‘rila boshladi. 1948-yil 21-fevralda SSSR Oliy Soveti Prezidiumining qishloq xo‘jaligida mehnat kunini bajarmayotgan va “parazit hayot tarzi” bilan shug‘ullanayotgan barcha shaxslarni yashab turgan qishloqlaridan SSSRning chekka hududlariga surgun qilish to‘g‘risidagi farmoni qabul qilindi. Birgina 1948-yilda 38000 kolxozchi va sovxoz ishchilariga shu farmon bo‘yicha jazo choralari qo‘llandi [22. B. 116].

1948-yil 2-iyulda SSSR Oliy Soveti Prezidiumining “Qishloq xo‘jaligida mehnat faoliyatidan ashaddiy bo‘yin tovlayotgan va jamiyatga qarshi parazit hayot tarzini olib borayotgan shaxslarni chekka hududlarga surgun qilish to‘g‘risida”gi yanada qat’iyroq farmoni chiqdi. Farmon “tekinxo‘rlar”ni uzoq o‘lkalarga, asosan Sibir va Uzoq Sharqqa ko‘chirish masalasini hal qilish huquqini kolxoz va sovxozlar boshqaruviga berdi. Bundan tashqari, surgun qilish to‘g‘risidagi qarorni kolxozchilarning o‘zlari qishloq yig‘inlarida qabul qilganlar. Bunga ko‘ra, dastlab ogohlantirish berilgan, agar u bajarilmasa, ko‘chirish to‘g‘risida qaror chiqarilgan. Mazkur farmonning 1948-yil 21-fevralda qabul qilingan farmondan farqi shunda ediki, ilgari bunday qarorlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlar va rayon rahbarlari qabul qilishi mumkin bo‘lgan bo‘lsa, endilikda bunday huquqlar kolxoz va sovxozlarning rahbarlariga ham berilgan edi. Kolxoz raislari bunday qarorlar chiqarishda majlis a’zolariga nomigagina suyanishi mumkin edi. Umuman, sovet hokimiyati ushbu farmonni qabul qilish orqali keng kolxozchilar ommasining mutlaq itoatkorligiga erishdi, ular endi boshliqning xatti-harakatlari noqonuniy bo‘lsa ham, unga ochiq e’tiroz bildirishdan qo‘rqardilar. Ushbu farmon asosida 12 ming dehqon va ularning oila a’zolari surgun qilingani ma’lum [23. B. 67–68]. Dehqonlar kolxoz raisining “qora ro‘yxati”ga tushib qolishdan qo‘rqib, kolxoz dalasida ertadan to kechgacha tinimsiz mehnat qilishga majbur edi.

SSSR Ichki ishlar ministri L.P.Beriya lager va qamoqxonalardagi mahbuslar bo‘yicha amnistiya o‘tkazish zarurligini asoslab, 1953-yil 26-martda KPSS Markaziy Komiteti Prezidiumiga quyidagilarni ma’lum qilgan edi: “Hozirgi vaqtda mehnat-tuzatuv lagyerlari, turmalar va koloniyalarda 2 million 526 ming 402 mahbus saqlanmoqda... So‘nggi yillarda mahbuslar umumiy sonining ko‘payishi, birinchi navbatda, 1947-yilda qabul qilingan davlat va jamoat mulkini o‘g‘irlaganlik va fuqarolarning shaxsiy mulkini o‘g‘irlaganlik uchun jinoiy javobgarlikni kuchaytirish to‘g‘risidagi farmonlarda uzoq muddatli qamoq jazosi nazarda tutilganligi bilan izohlanadi. 1953-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, ko‘rsatilgan jinoyatlar uchun qamoqqa olinganlarning umumiy sonidan 1 million 241 ming 919 kishi lagyerlarda saqlangan” [24. B. 46].

Shunday qilib, urushdan keyingi yillarda sovet hukumati tomonidan ko‘rilgan qattiq chora-tadbirlar tufayli dehqonlarning tashabbuskorligi va tadbirkorligiga zarba berildi, tomorqa uchastkalari ishiga joriy etilgan ijtimoiy-iqtisodiy cheklashlar esa urushdan keyingi davr sharoitida asosiy iste’mol tovarlarining keskin taqchilligini keltirib chiqardi, bunday mahsulotlarning yuqori narxlari saqlanib qolishiga olib keldi.

Adabiyotlar:

1. Чуканов И.А. Агитационно-пропагандистская работа среди сельских тружеников в годы Великой Отечественной войны // Российская деревня: социально-экономическая история и современность. – Ульяновск: УлГПУ, 2016. – 896 с.

2. Сельское хозяйство СССР. Статистический сборник. – Москва: Статистика, 1971. – 710 с.

3. Советская жизнь 1945-1953 гг. / Сост.: Е.Ю.Зубкова и др. – Москва: РОССПЭН, 2003. – 719 с.

4. Народное хозяйство СССР за 60 лет. Статистический сборник. – Москва: Статистика, 1977. – 709 с.

5. История СССР. С древнейших времен до наших дней. В 12 томах. Том XI. Советский Союз на пути к развитому социализму 1945-1961 гг. / Отв. ред. И.Я. Берхин. – Москва: Наука, 1980. – 653 с.

6. *Зеленин И.Е*. Советская аграрная политика в 1950 – начале 1980-х годов / Россия в XX веке. Реформы и революции. В 2 томах. Том 2. / Редкол.: С.М. Исхаков и др. – Москва: Наука, 2002. – 542 с.

7. *Волков И.М*. Трудовой подвиг советского крестьянства в послевоенные годы. Колхозы СССР в 1946–1950 гг. – Москва: Мысль, 1972. – 293 с.

8. *Попов В.П*. Крестьянство и государство (1945 – март 1953). – Париж: YMCA-press, 1992. – 298 с.

9. *Вербицкая О.М.* Российское крестьянство от Сталина к Хрущеву: середина 1940-х – начало 1960-х гг. – Москва: Наука, 1992. – 222 с.

10. Фарғона вилоят давлат архиви, 1124-фонд, 2-рўйхат, 155-иш.

11. *Арутюнян Ю.В.* Советское крестьянство в годы Великой Отечественной войны. 2-е изд., доп. – Москва: Наука, 1970. – 466 с.

12. *Русинов И.В*. Аграрная политика в 50-е – первой половине 60-х гг.: опыт и уроки // Вопросы истории КПСС. 1988. – № 9. – С. 35–49.

13. *Смирнов В.И*. Подвиг советского крестьянства. – Москва: Московский рабочий, 1976. – 311 с.

14. Советская деревня в первые послевоенные годы. 1946–1950 гг. Отв. ред. И.М. Волков. – Москва: Наука, 1978. – 511 с.

15. История крестьянства СССР. История советского крестьянства. В 5-ти томах. Том 4. Крестьянство в годы упрочения и развития социалистического общества. 1945 – конец 50-х годов. / Отв. ред. И.М.Волков. – Москва: Наука, 1988. – 395 с.

16. *Безнин М.А., Димони Т.М*. Завершение раскрестьянивания в России (вторая половина XX века) // Россия в XX веке. Реформы и революции. – Том 1. – Москва: Наука, 2002. – С. 632–643.

17. Решения партии и правительства по хозяйственным вопросам. В 5 томах. Сборник документов за 50 лет. Том 3. 1941–1952 гг. – Москва: Политиздат, 1968. – 751 с.

18. Голоса крестьян: сельская Россия XX века в крестьянских мемуарах. /Сост. и обраб. Е.М.Ковалев. – Москва: Аспект пресс, 1996. – 411 с.

19. Фарғона вилоят давлат архиви (ФВДА)), 1124-фонд, 2-рўйхат, 168-иш.

20. *Островский В.Б*. Колхозное крестьянство СССР. Политика партии в деревне и ее социально-экономические результаты. – Саратов: Изд-во Саратовского университета, 1967. – 329 с.

21. Перебудова державного механізму України в період великої вітчизняної війні. Условия Военного времени диктовали Необходимость изменения и перестройки всего хозяйственного механизма на военный лад. [Электронный ресурс]. URL: https://infopedia.su/4x347.html. (Мурожаат этилган сана: 03.06. 2024).

22. *Попов В.П*. Экономическая политика Советского государства. 1946–1953 гг. – Тамбов: Изд-во ТГТУ, 2000. – 221 с.

23. *Пянкевич В.Л*. Восстановление экономики СССР (середина 1941–середина 1950-х гг.). Историография. – Санкт-Петербург: Нестор, 2001. – 430 с.

24. *Попов В.П.* Голод и государственная политика (1946–1947 гг.) // Отечественные архивы. – 1992. – № 6. – С. 39–48.

THE FATE OF COLLECTIVE FARM HOUSEHOLDS IN UZBEKISTAN AFTER WORLD WAR II (1946–1953)

M.G. Abdullaev[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2025. 1 (85). 63-70.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str., University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: *Second World War, agriculture, agrarian policy, collective farm, collective farmer, personal household, natural tax, labor obligation, family income, food policy, Soviet government.*

It is known that in the postwar years, the Soviet government did not actively begin to radically change production relations in the agrarian sector of the economy, and the strict rules and regulations introduced during the war years remained in this sphere. The Soviet state also refused to introduce a system of material incentives for collective farmers during the transition to peaceful construction. As a result of the policy pursued, production indicators in the agricultural sector remained low. High yields of grain crops were not achieved. Even in 1950, the country's grain yield did not reach the 1940 level.

In the hands of the collective farms, very little money remained for the payment of collective farmers' labor. The work performed was measured in a conventional unit - labor days. Remuneration at the end of the calendar year was carried out in two forms: partially in kind and partially in money. In many collective farms, wages were much lower than before the war.

Private household plots provided the villagers with meat, milk, vegetables and fruits, eggs, oil, and hides. In addition, the population received cash by selling part of the products grown on their household plots in the market, with which they could buy clothes and household items. Because even in the post-war years, in many collective farms of Uzbekistan, wages were paid not in money, but in kind. However, not all products produced on dehkan household plots remained with the dehkans themselves. The peasant household was subject to two types of taxes - in kind and in money.

Collective farm members tried to make a living in collective farms only by fulfilling the established norm, and at other times - by working on their personal plots. This tendency led to the fact that some collective farmers did not fulfill even the minimum working day established by the Charter of the agricultural artel. In 1950, unfulfilled labor days in collective farms across all regions of Uzbekistan exceeded 15%. For this reason, strict penalties were applied to collective farmers for unfulfilled labor days, and they began to be held administratively and even criminally liable.

Throughout the country, serious measures began to be taken against the activities of peasants' private farms. Large taxes began to be levied on every cow, horse, pig, sheep, and even small poultry in private farms. In this case, taxes were levied both in monetary and in-kind forms. The goal of the local authorities was to limit private production, which was the most profitable part of agriculture.

The Soviet government's actions against individual household plots caused serious damage to the economic situation of the peasants. In 1948, the rates of agricultural tax on personal subsidiary plots were increased from 8 to 17 percent. At the same time, other payments also increased - insurance payments, self-taxation, payments for various types of loans, regularly distributed by the state to the rural population.

References:

1. Chukanov, I.A. (2016) *Agitacionno-propagandistskaya rabota sredi sel'skih truzhenikov v gody Velikoj Otechestvennoj vojny* [Agitation and propaganda work among rural workers during the Great Patriotic War]. Rossijskaya derevnya: social'no-ekonomicheskaya istoriya i sovremennost' [Russian Village: socio-economic history and modernity]. Ul'yanovsk: UlGPU.

2. (1971) Sel'skoe hozyajstvo SSSR [Agriculture of the USSR]. Statisticheskij sbornik [Statistical collection]. Moscow: Statistika.

3. *Zubkova E.Yu*.(ed.al) (2003) Sovetskaya zhizn' 1945-1953 gg [Soviet life 1945-1953].Moscow: ROSSPEN, 2003.

4. (1977) Narodnoe hozyajstvo SSSR za 60 let [The People's Economy of the USSR for 60 Years]. Statisticheskij sbornik [Statistical collection]. Moscow: Statistika.

5. Berhin, I.Y. (ed.al.) (1980) *Istoriya SSSR. S drevnejshih vremen do nashih dnej* [History of the USSR. From ancient times to the present day]. Sovetskij Soyuz na puti k razvitomu socializmu 1945-1961 gg. Sovetskij Soyuz na puti k razvitomu socializmu 1945-1961 gg. [The Soviet Union on the path to developed socialism 1945-1961]. In 12 volumes. Vol.XI. Moskow: Nauka.

6. Zelenin,I.E. (2002) *Sovetskaya agrarnaya politika v 1950 – nachale 1980-h godov* [Soviet Agrarian Policy in the 1950s - Early 1980s]. In: Rossiya v XX veke. Reformy i revolyucii [Russia in the 20th Century. Reforms and revolutions]. In 2 volumes. Vol.2]. Moskow: Nauka.

7. Volkov, I.M. (1972) *Trudovoj podvig sovetskogo krest'yanstva v poslevoennye gody. Kolhozy SSSR v 1946-1950 gg*. [The labor feat of the Soviet peasantry in the post-war years. Collective farms of the USSR in 1946-1950]. Moskow: Mysl'.

8. Popov, V.P. (1992) *Krest'yanstvo i gosudarstvo (1945 – mart 1953)* [The Peasantry and the State (1945 - March 1953)]. Parij: YMCA-press].

9. Verbickaya, O.M. (1992) *Rossijskoe krest'yanstvo ot Stalina k Hrushchevu: seredina 1940-h – nachalo 1960-h gg*. [Russian peasantry from Stalin to Khrushchev: mid-1940s - early 1960s]. Moskow: Nauka.

10. Farg'ona viloyat davlat arxivi (FVDA) [Fergana Regional State Archive (FRSA)]. Fund 1124, List 2, Case 155.

11. Arutyunyan, Yu.V. (1970) *Sovetskoe krest'yanstvo v gody Velikoj Otechestvennoj vojny* [Soviet peasantry during the Great Patriotic War]. Moskow: Nauka.

12. Rusinov, I.V. (1988) Agrarnaya politika v 50-e – pervoj polovine 60-h gg.: opyt i uroki [Agrarian policy in the 50s - first half of the 60s: experience and lessons]. *Voprosy istorii KPSS*. No 9. Pp. 35-49.

13. Smirnov, V.I. (1976) *Podvig sovetskogo krest'yanstva* [The feat of the Soviet peasantry]. Moskow: Moskovskij rabochij.

14. Volkov, I.M. (ed.) (1978) *Sovetskaya derevnya v pervye poslevoennye gody. 1946–1950 gg.* [Soviet village in the first postwar years. 1946-1950]. Moskow: Nauka.

15. Volkov, I.M. (ed.) (1988) *Istoriya krest'yanstva SSSR. Istoriya sovetskogo krest'yanstva* [History of the USSR Peasants. History of the Soviet peasantry]. Krest'yanstvo v gody uprocheniya i razvitiya socialisticheskogo obshchestva. 1945 – konec 50-h godov [Peasantry during the years of consolidation and development of the socialist society. 1945 - end of the 50s]. In 5 volumes. Vol.4. Moskow: Nauka.

16. Beznin, M.A., Dimoni, T.M. (2002) *Zavershenie raskrest'yanivaniya v Rossii (vtoraya polovina XX veka)* [The Completion of Discrimination in Russia (Second Half of the 20th Century)]. Rossiya v XX veke. Reformy i revolyucii [Russia in the 20th Century. Reforms and revolutions]. Vol. 1. Moskow: Nauka. Pp. 632-643.

17. (1968) Resheniya partii i pravitel'stva po hozyajstvennym voprosam [Decisions of the party and government on economic issues]. Sbornik dokumentov za 50 let. Tom 3. 1941-1952 gg. [Collection of documents for 50 years. Vol. 3. 1941-1952]. Moscow: Politizdat.

18. Kovalev, E.M. (ed.) (1996*) Golosa krest'yan: sel'skaya Rossiya XX veka v krest'yanskih memuarah* [Peasants' Voices: Rural Russia of the 20th Century in Peasants' Memoirs]. Moskow: Aspekt press.

19. FRSA. Fund 1124, List 2, Case 168.

20. Ostrovskij, V.B. (1967) *Kolhoznoe krest'yanstvo SSSR. Politika partii v derevne i ee social'no-ekonomicheskie rezul'taty* [Collective farm peasantry of the USSR. Party policy in rural areas and its socio-economic results]. Saratov: Izd-vo Saratovskogo universiteta.

21. Perebudova derzhavnogo mekhanizmu Ukraïni v period velikoï vitchiznyanoï vijni. Usloviya Voennogo vremeni diktovali. Neobhodimost' izmeneniya i perestrojki vsego hozyajstvennogo mekhanizma na voennyj lad [Restructuring of the state mechanism of Ukraine during the Great Patriotic War. The conditions of wartime dictated the need to change and restructure the entire economic mechanism in a military manner]. [Online]. URL: https://infopedia.su/4x347.html. (Date of Access: 03.06. 2024).

22. Popov, V.P. (2000) *Ekonomicheskaya politika Sovetskogo gosudarstva*. *1946–1953 gg*. [Economic policy of the Soviet state. 1946-1953]. Tambov: Izd-vo TGTU.

23. Pyankevich, V.L. (2001) *Vosstanovlenie ekonomiki SSSR (seredina 1941– seredina 1950-h gg.). Istoriografiya* [Restoration of the USSR Economy (mid-1941 - mid-1950). Historiography]. Sankt-Peterburg: Nestor.

24. Popov, V.P. (1992) Golod i gosudarstvennaya politika (1946–1947 gg.) [The famine and state policy (1946-1947)]. *Otechestvennye arhivy.* No 6. Pp. 39-48.

Muallif haqida ma'lumot:

ABDULLAYEV Muzrobjon G'ulomovich – Andijon davlat universiteti O'zbekiston tarixi kafedrasi professori, tarix fanlari doktori. E-mail: muzrobjon@list.ru